



“ISYON VA ITOAT” ROMANIDA BADIYYAT MASALALARI

UDK: 8-1/-9+003.62+004.13

Uralova Dilnoza Murodilla qizi

<https://orcid.org/0009-0009-2662-7868>

+998937981021

dilnozaqochqorova86@gmail.com

Uralova Dilnoza Murodilla qizi – FarDu 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

XX asarda Jeym Joys, Marsel Prust, Frans Kafka singari “ong oqimi” vakillari ijodida inson botinining taftishi, o‘zligini anglash, insonning ma’naviy dunyosini anglash va anglatish kabi yo‘nalishlar ustuvor edi. Jahon adabiyotining durdona tajribalari milliy adabiyotimiz an‘analari bilan sintezlashib, o‘ziga xos nasriy asarlar yaratilishiga zamin hozirladi. Bu holat, ayniqsa, roman janrida yaqqol bo‘y ko‘rsatdi. Zero, roman janri boshqa nasr namunalariga nisbatan doimo o‘zgaruvchandir. Ulug‘bek Hamdam nasriy asarlarining har biriga nazar tashlasak, har birida o‘ziga xos uslub, badiiy talqin, tasvir imkoniyatlari ko‘zga tashlanadi.

Tayanch so‘z va iboralar: motiv, modernizm, qissa, ruhiyat, voqea, portret, monolog, dialog, tush, peyzaj, dialektika.

“Isyon va itoat” romanida isyon konsepsiyasining ustuvorligi ahamiyat kasb etadi. G‘arb adabiyotida ham, Sharq adabiyoti durdonalarida ham isyon konsepsiyasi mavjud, ularning yakuniy hukmi esa ularni farqlab turadigan jihatlardandir. Yuqorida sanalgan “ong oqimi” vakillarining asarlarida isyon huddi hayotning absurdligidan kelib chiqqan “tabiiy hol” dek qaraladi. Ijodkorning “Isyon va itoat” romanida tilga olingan isyon esa oxirida yaratganning belgilab bergan taqdiriga roziligi bilan yakun topadigan isyon konsepti ekanligi bilan farqlanib turadi. Roman ibtidosi zulmat tasviri bilan



boshlanadi: “Olam uzra zulmat hukmron edi u paytlar. Na qittay yorug‘lik bor edi va na jinday harakat”[1]. Aynan zulmat tasviri bilan boshlangan muqaddima ijodkorning “Sabo va Samandar” romanida ham uchraydi: “Tun... Olamni zulmat qoplagan” [2]. Anglashiladiki, zulmat isyonning timsoli sifatida gavdalanadi, doimo oldin isyon paydo bo‘ladi, undan keyingina isyon bor qalbgina itoatga kelishiga asarning avvalboshidanoq ishoralar berib o‘tiladi. Asarning bosh qahramoni – Akbar hamda unga yondosh holatda Larisa xola, Tabib, Diana, Tursunboy jontalash, Farida kabi personajlar muallifning badiiy niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ijodkor asarga nom berishda foydalangan zid ma’noli so‘zlarning o‘ziyoq kitobxonga mayoq vazifasida uning g‘oyasini yanada oydinlashtirishda yordam beradi. O‘quvchisini bir tarsaki urgani uchun hayotining uch yilini qamoqda o‘tkazgan Akbar nihoyat ozodlikka chiqadi. Asarga tabib obrazi Akbarga yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy ustoz sifatida kiritiladi. Tabib Akbarga yo‘lga chiqishi lozimligini uqtiradi, xuddiki parallel ravishda “Yo‘l” romanida qahramonga ustoz yo‘lga chiqishi lozimligini tushida anglatganidek, Akbar ham yo‘lga otlanadi. Akbarga “yo‘l” botinidagi to‘la g‘alayonni itoatga aylantirish uchun kerak edi. Shu yo‘lda u chetga qovun olib borib sotadi, molini oldirib qo‘yadi, jazoga tortiladi, lekin Akbar bo‘yin egmaydi. Uning g‘ururi hamda qat’iyatliliigi, o‘lim bilan yuzlasha olishi “boss”ning tantiligiga sabab bo‘ladi, u yetarlicha boylikka ega bo‘lsa-da, lekin qalbida isyon olovi hamon o‘chmagan edi: “Hatto duoni ham unutdi. Faqat...– isyon bor edi, balki, uning yuragida! Isyon bo‘lgandayam, o‘z qismatiga, qismatining alamli, dunyoning firibdan, zo‘ravonlikdan, aldovdan iborat ekanligiga qarshi arziyas isyon”[3]. Yozuvchi romanda ichki monologlardan unumli foydalanadi, aynan Akbarning isyoni ichki va tashqi monolog unsuri vositasida asarda zuhurlanadi. Asarga so‘zboshi yozgan adabiyotshunos olim D.Quronov ta’kidlaydiki, “...muallif haqiqatga monand realistik obrazlar-u manzaralar yaratishni maqsad qilmaydi, shartli-ramziy obrazlar vositasida olam- u odam mohiyatini anglashga intiladi”[4]. Ijodkor asarda olamning yaralishi haqidagi hikmatlarni kiritma voqea



sifatida ketma-ketlikda epik ko'lamda berib boradi, bundan murod esa ko'hna muammoning[5]. yangicha talqini roman foniga singdirish edi. Ijodkor ana shu g'oyani berishda kiritma voqeadan unumli foydalanadi hamda badiiy niyatiga mohirona erishadi. Shu o'rinda savol tug'iladi, asar qa'tiga singdirilgan ko'hna muammo nima edi? Yozuvchi qay yo'sinda bu muammoni kitobxonga bera oldi? Bizningcha, ijodkor kiritgan quyidagi ko'hna hikmat muammoning asl ildizga ishora qiladi: "Allo taolo Odamning hech narsadan kam bo'lmay yashamog'i uchun Adan bog'ini bunyod etdi. Unga turli-tuman daraxtlar o'tqazdi, irmoqlar keltirdi. So'ng odamni u yerga qo'yib: "Sen bu bog'ning har bir daraxtidan yeyavergin. Faqat yaxshi va yomonni bilish daraxtidan yema. Chunki undan yeganing kuniyoq o'lasan", – deya buyurdi"[6]. Anglashiladiki, inson yaratgannning ilohiy buyrug'ini bajarmadi, shukur qilmadi natijada inson qalbiga isyon urug'i birinchi marta shu tariqa ekildi va ana shu isyon hozirga qadar mudom inson qalbida yashab kelmoqda. Asarda tasvirga olingan har bir obrazning qalbida o'z holatiga yarasha isyoni bor. Akbarnin g qalbidagi isyonni o'chirishda tabib, ya'ni Akbarning ustozlari unga har gal to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Romanda yolg'izlik motivi tabib obrazida yaqqol namoyon bo'ladi. Tabib yigirma yildan beri yolg'iz yashaydi, ayolining xiyonati tufayli, u shu hayotni, yolg'izlikni tanladi, umrini insonlarning dardini yengillatishga qaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Хамдам У. Ватан ҳақида қўшиқ. – Тошкент: Академнашр, 2020. – Б. 283.
2. Хамдам У. Сабо ва Самандар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б.12.
3. Хамдам У. Ватан хакида қўшиқ. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 296.
4. Қуронов Д. Кўҳна муаммо, янги талқин // Қаранг: Хамдам У. Ватан ҳақида қўшиқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 280.



5. Куронов Д. Кўхна муаммо, янги талқин // Қаранг: Ҳамдам У.
Ватан ҳақида кўшиқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 282.
6. Ҳамдам У. Ватан ҳақида кўшиқ. –Тошкент: Академнашр, 2014. –
Б. 302.
7. Йўлдошев К. Дардчил туйғу ва безовта рух. // Ёниқ сўз. Тошкент:
янги аср авлоди, 2006, - Б. 511.
8. Карим Б. Улуғбекнинг дил изҳори. // Узокдаги Дилнура. Т.:
Академнашр, 2010. - Б. 3.
9. Йўлдошев К. Дардчил туйғу ва безовта рух. // Ёниқ сўз. Тошкент:
янги аср авлоди, 2006, - Б. 511.
- 10.Карим Б. Улуғбекнинг дил изҳори. // Узокдаги Дилнура. Т.:
Академнашр, 2010. - Б. 3.
- 11.Sabirdinov A. Ma'naviyat va ma'rifat chashmalari –Toshkent.
Akademnashr.: 2016.
- 12.Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий
лқини.ф.ф.д. дисс.автореферати, –Т., 2010.